

**Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyning  
bitiruvchilari Toshkent davlat yuridik universitetiga yakka tartibda suhbat  
o‘tkazish bo‘yicha suhbat savollari**

**Akademik litsey dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo‘yicha bilim saviyasi  
va o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha savollar**

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va uning asosiy mohiyati nimada?
- 2) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi qanday?
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy printsiplarini aytib bering?
- 4) O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi palatalari to‘g‘risida nimalar bilasiz?
- 5) Davlat deganda nimani tushunasiz, davlatning asosiy belgilarini ayting?
- 6) Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi qanday?
- 7) Huquq deganda nima tushunasiz?
- 8) Inson huquqlari va tabiiy huquqlar deganda nima tushunasiz?
- 9) Huquqiy madaniyat deganda nima tushunasiz?
- 10) Qonun tushunchasini izohlab bering?
- 11) Oliy davlat vakillik organi deganda nimani tushunasiz?
- 12) Davlatning boshqaruv shakllarini isohlab bering?
- 13) Huquq funktsiyalari haqida fikringizni bayon qiling?
- 14) Insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini aytib bering?
- 15) Fuqarolarimizda qanday siyosiy huquqlar mavjud?
- 16) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qanday iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavjud?
- 17) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolarning burchlarini aytib bering?
- 18) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaga oid qanday qoidalar bor?
- 19) Qanday siyosiy partiyalarni bilasiz?
- 20) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga nimalar kiradi?
- 21) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga nimalar kiradi?
- 22) Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?

- 23) Nima uchun kishiga huquqiy bilimlar zarur? Huquqiy savodsizlik nimaga olib keladi?
- 24) O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatini tavsiflab bering?
- 25) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolatlarini aytib bering?
- 26) O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini sanab o'ting?
- 27) «Huquqiy davlat» tushunchasiga ta'rif bering?
- 28) «Fuqarolik jamiyati» tushunchasiga ta'rif bering?
- 29) Fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqatini tavsiflab bering?
- 30) Mulk huquqining konstitutsiyaviy asoslarini tavsiflab bering?
- 31) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar haqida gaprib bering?
- 32) Jazoning muqarrarligi tamoyilining mohiyati nimada?
- 33) Siz davlat boshqaruvining qanday markaziy va mahalliy idoralarini bilasiz?
- 34) Fuqarolar huquqiy layoqatining muomala layoqatidan farqi nimada?
- 35) Mulk egasi o'zining mulkiga doir qanday huquqlarga ega?
- 36) O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini aytib bering?
- 37) Shartnoma tushunchasini izohlab bering?
- 38) Boshqaruvning respublika shakliga xos bo'lgan asosiy belgilarini ayting?
- 39) Unitar davlatga xos bo'lgan asosiy belgilarni ayting
- 40) Iste'molchi tushunchasini qanday tushunasiz?
- 41) Fuqaro tushunchasini qanday tushunasiz?
- 42) Mehnat qilish huquqi deganda nimani tushunasiz?
- 43) Korrupsiya deganda nima tushunasiz?
- 44) Demokratiya deganda nima tushunasiz?
- 45) Huquqiy davlat qanday davlat?
- 46) Huquqbuzarlik deganda nima tushunasiz?
- 47) Xalqaro tashkilot deganda nimani tushunasiz? Xalqaro tashkilotlarga misollar keltiring.
- 48) Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda nimani tushunasiz?
- 49) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va tuzilishini aytib bering.
- 50) Konstitutsiyaviy sud qanday organ va sizningcha nima sababdan shunday deb nomlangan?

**Yuridik kasbni tanlashda motivatsiyasini aniqlash uchun savollar**  
**(huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga**  
**doimiy qiziqish ko'rsatish)**

- 1) Har bir inson kasb tanlashda o'zining hayot tajribasi, qiziqishlari va intilishlariga, ushbu kasbga bo'lgan munosabatiga asoslanadi. Masalan, kimdir ota-onasi vrach bo'lgani uchun bu kasbga hurmati baland bo'lib, uni tanlaydi.  
*Yurist mutaxassisligini egallashga qaror qilishingizga qanday omillar ta'sir etdi?*
- 2) Hayotda kasblar ko'p, har bir kasbning o'z xususiyatlari, og'ir va yengil tomonlari bor. Yurist kasbining muhim jihati jamiyatda huquq ustuvorligini ta'minlashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.  
*Sizningcha, yurist kasbining eng muhim jihatlari nimalarda ifodalanadi?*
- 3) Xalqimiz har qanday qiyinchiliklarga chidashi mumkin, biroq adolatsizlikka chiday olmaydi. Binobarin, adolat qaror topgan jamiyatda rivojlanish ham yuqori darajada bo'ladi.  
*Jamiyatda adolatsizlik holatlariga qarshi kurashda yuristning o'rni va roli qanday? Misollar bilan fikringizni asoslang.*
- 4) Qoidaga ko'ra har bir korxonada va muassasada yurist lavozimi bo'lishi kerak. Amaldagi qonunchilikka ko'ra yuristlar nafaqat mazkur korxonada va muassasada rahbari hujjatlarining qonuniyligini, balki ushbu jamoada qonuniylik ta'minlanishiga ham hisoblanadi.  
*Qonuniylik, huquq ustuvorligini ta'minlashga yurist qanday sifat va fazilatlarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaysiz? Misollar bilan o'z fikringizni asoslang.*
- 5) Jamiyatda qonuniylik va adolat hukm surishi uchun juda ko'p omillar amal qilishi kerak. Shunday omillardan biri aholining o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi, ularni amalga oshira olishidir.  
*Aholining huquqiy ongini ko'tarishda yuristlarning o'rni va roli nimalarda namoyon bo'ladi?*
- 6) Yurist, umuman olganda, huquqshunoslik yo'nalishi, yuridik fanlar bo'yicha mutaxassis, huquq sohasidagi amaliyotchi hisoblanadi.  
*Siz bu kasb haqida qanday tasavvurlarga egasiz?*
- 7) Yuridik kasbni egallashni maqsad qilib olgan har bir kishi, albatta, huquq sohasiga qiziqib, u haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi, chunki yurist kasbi jamiyatning huquqiy tizimi bilan chambarchas bog'liq.  
*Sizningcha, yurist kasbini egallagan shaxs, avvalo, nimalarni bilishi kerak?*

- 8) Huquqqa ta'rif berishda yuristlar asosan uni davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi, deb ko'rsatishadi.  
*Siz ushbu ta'rifni qanday sharhlab bera olasiz?*
- 9) Yurist aslida jamiyat hayotining turli sohalari bo'lmish iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga ham ta'sir etadi va shu tariqa u iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi.  
*Aytingchi, siz yuristning bunday serqirra faoliyatini qanday izohlab bera olasiz?*
- 10) O'zbekistonda fuqarolik qonunchiligiga binoan boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi.  
*Yuristning muassasalar bilan bog'liq faoliyatini tushuntirib bera olasizmi?*
- 11) O'zbekistonda jinoiy-huquqiy qonunchilikka binoan aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha uni aybsiz deb faraz qilinadi.  
*Ushbu tamoyilni yurist kasbi uchun qanday ahamiyati bor?*
- 12) Qonunchiligimizga binoan insonlarning sudda o'ziga nisbatan har qanday ish ko'rilayotganda o'z huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqi amalga oshiriladi.  
*Bu masalada yuristning o'rni va roli haqida nimalarni bilasiz?*
- 13) "Huquq beriladi, qonun yaratiladi", degan ibora mavjud.  
*Sizning huquq haqidagi fikringiz qanday?*
- 14) Shaxsni himoya qilish, shuningdek uning hayotini ijtimoiy xavfli tajovuzlardan muhofaza qilish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.  
*Mazkur vaziyatda yuristning tutgan o'rni va roli qanday namoyon bo'ladi?*
- 15) O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.  
*Bu Konstitutsiyaning asosiy printsiplaridan biri bo'lib, uning yurist faoliyatida qanday ahamiyati bor?*
- 16) O'zbekiston qonunchiligiga binoan Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi muvoziy tarkiblarini tuzish konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.  
*Mazkur konstitutsiyaviy qoidani himoya qilishda yuristning tutgan o'rni va roliga baho bering.*

- 17) Huquqiy davlatning asosiy talablaridan biri huquq ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, shaxs va jamiyat faoliyatining barcha ko'rinishlarida qonun ustuvorligiga erishishdir.  
*Bunda yurisprudentsiya yoki huquqshunoslik sohasining asosiy vazifasi nimada ko'rinadi?*
- 18) O'zbekistonda insonni ulug'lash, uning xohishi, irodasini kafolatlash, orzu umidlarini to'la ro'yobga chiqarish davlatning ustuvor maqsadi qilib belgilangan.  
*Yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda yuristning tutgan o'rni va rolini ko'rsating.*
- 19) Ma'lumki, kasb etikasida inson xatti-harakatining ikki qutbi – axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari tahlil etiladi.  
*Sizningcha, yurist etikasida bu ikki qutb qanday o'rin tutadi?*
- 20) Huquqshunoslik sohasini tanlaganlardan yuksak ma'naviy fazilatlarni egallash talab etiladi.  
*Sizningcha, ana shu yuksak fazilatlar deganda nimalar tushuniladi?*
- 21) Ma'lumki, etika tushunchasi va tamoyillarining shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati shundaki, ular kishi ma'naviy faoliyatining, ichki dunyosining turli ko'rinishlarini ifoda qiladi.  
*Sizningcha, etika tushunchalari yuristlar uchun qanchalik muhim o'rin tutadi?*
- 22) Huquqiy davlatning asosiy talablaridan biri mamlakatda huquq ustuvorligi va barchaning qonun oldida tengligini ta'minlash, shuningdek shaxs va jamiyat faoliyatining barcha ko'rinishlarida qonun ustuvorligiga erishishdir.  
*Bu sohada Siz huquqshunos sifatida qanday harakat qilgan bo'lar edingiz?*
- 23) Ta'kidlash joizki, sud – insoniyat butun sivilizatsiya davrida kashf etgan nizolarni hal etishning, mutanosib jazo tayinlashning samarali vositasi, eng noyob ijtimoiy hodisa va ma'naviyatimizning buyuk yutug'idir.  
*O'zbekistonda sud-huquq sohasidagi bugungi islohotlar xususida fikringiz*
- 24) Xalqimizda “Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i kerak”, degan naql mavjud. Demak, sud va huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimining o'zi qonunga itoat etmog'i, boshqa fuqarolar uchun namuna bo'lmog'i lozim.  
*Sizningcha, ana shu namuna nimalarda aks etadi?*
- 25) Ma'lumki, odob-axloqning tartibga soluvchi vazifasi jamoatchilik fikriga tayangan holda amalga oshiriladi.  
*Sizningcha, jamoatchilikning yurist sohasi vakillarining yurish-turishiga munosabati nimalarda ko'rinadi?*

26) Olimlarning fikricha, insoniyat taxminan 5 ming yillardan beri davlat sharoitida yashamoqda. Davlat insonlar hayotini tashkil etadi, uning bir maromda kechishini ta'minlaydi.

*Davlat bu qanday tashkilot, uning jamiyatda tutgan o'rnini qanday?*

27) Etika tamoyillarini biror-bir shaxs yaratmagan, u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq moddiy va ma'naviy hayot jarayonida kishilar ijtimoiy turmushining, axloqiy munosabatlarning talablarini birmuncha umumlashgan holda aks ettiradigan axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun-qoidalar hisoblanadi.

*Sizningcha, bo'lajak yuristning faoliyatida asosiy axloqiy muammolarning mohiyati nimadan iborat?*

28) Qadriyatlar muayyan bir xalq turmush turzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, mentalitetini namoyon etadi.

*Sizningcha, milliy qadriyatning yuristlar uchun muhim jihati nimalarda aks etadi?*

29) Yurist uchun zaruriy bo'lgan kasbiy ko'nikmalar ichida yozma nutq o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yurist faoliyati bevosita hujjatlar bilan bog'liq holda kechadi?

*Yozma nutqning kasbiy faoliyatda tutgan o'rnini asoslab bering.*

30) Jamiyatda turli xil kasb egalari mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faoliyat olib borishadi. Yuristlar faoliyati bevosita jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish bilan bog'liq.

*Fikringizcha, yuristlar qanday masalalarni hal etishadi?*

31) Qadimgi Rimda amaliyotchi yurist, albatta, notiq bo'lishi talab etilgan. Agarda, birorta yuristning nutqi aholida avvalgiday qiziqish uyg'otmasa, bu holda bu yuristning ishi orqaga keta boshlagan, chunki unga kam kishi yoki umuman hech kim himoya so'rab murojaat qilmagan.

*Yurist faoliyatida og'zaki nutqning tutgan o'rnini tushuntirib bering.*

32) Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash deganda shaxslarning konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda har bir insonning bu huquqlarini huquqiy amalga oshirish tushuniladi.

*Aytingchi, yurist kasbini tanlagan shaxslarning bu sohada tutgan o'rnini nimalarda namoyon bo'ladi?*

- 33) Qonunchiligimizga binoan insonlarning sudda o'ziga nisbatan har qanday ish ko'rilayotganda o'z huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqi amalga oshiriladi.  
*Bu masalada yuristning o'rni va roli haqida nimalarni bilasiz?*
- 34) Huquqshunoslarning kasbiy huquqiy madaniyati haqida ham jahon miqyosida, ham milliy qonunchiligimizda bir qancha mezonlar tilga olingan.  
*Siz ana shu kasbiy huquqiy mezon degan tushunchaga qanday munosabatdasiz?*
- 35) Jamiyatda ayrim insonlar yoshligidan ma'lum bir kasbga qiziqib, shu kasb egasi bo'lishi uchun doim harakat qiladi. Ayrim toifadagi insonlarning kasb tanlashida esa ularda shakllangan xarakter katta rol o'ynaydi.  
*Fikringizcha, yurist kasbini egallash uchun shaxsda qanday xarakter yoki sifatlar shakllangan bo'lishi kerak?*
- 36) Har bir kasbning o'z qiyinchiligi bo'lganidek, huquqshunos kasbining ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Masalan, jamiyatda ko'p kuzatganmizki, yuristlar, umuman huquqni muqofaza qiluvchi organlarda ishlovchi mutaxassislarning o'ziga, oilasiga ko'p vaqt ajratishi qiyin bo'ladi.  
*Aytingchi, ham yuridik faoliyatda, ham shaxsiy hayotda muvaffaqiyatli harakat qilish, muvovzanatni ushlab uchun qanday sifatlarga ega bo'lish lozim?*
- 37) Ma'lumki, yuristning asosiy quroli qonun hisoblanadi. Ammo, yuridik faoliyatda qonun bir kun yuristning qarindoshi, yaqin do'sti yoki shu yuristni ishga qabul qilgan rahbar bilan qarama-qarshi kelishi mumkin.  
*Fikringizcha, yurist qonun talabini so'zsiz ijro etishi kerakmi yoki haqiqatda yordamga muhtoj shaxslar yoxud jamoa manfaatlarini hisobga olib biroz vaziyatga qarab ish tutishi kerakmi? Bunda qonunni buzishga to'g'ri kelsa-chi?*
- 38) Ayrim insonlarning yuridik kasbni tanlashida kimdirlarning, masalan, huquq sohasida faoliyat yuritayotgan ota-onasining qistovi yoki oldin o'zi bilan bog'liq sodir bo'lgan ma'lum bir nohaqlik, adolatsizliklar sabab bo'ladi.  
*Fikringizcha, shaxsga majburan biror kasbni, masalan huquqshunos kasbini egallashga majburlash, yoki adolatsizlik qilganlarga murozasiz kurashish (o'ch olish) huquqshunoslik kasbida muvaffaqiyatga erishishga qanday ta'sir qiladi?*
- 39) Yuridik kasb egalari asosan ma'lum bir hujjatlar (qog'ozlar) bilan ishlashadi. Xatto, kasb vakillari orasida "Qog'oz gapiradi" degan iboralar ham tarqalgan.  
*Aytingchi, huquqshunoslik sohasida normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va ularning ijrosini ta'minlashda inson omilining ahamiyati qanday?*
- 40) Yuridik faoliyatni olib borish davomida bazan qonun va xayotdagi holat mazmuni bir-biriga zid kelib qolishi yoki adolat va qonuniylik tamoyillari bir-birini inkor etib qo'yishi mumkin.

*Sizning faoliyatingizda shunday holat yuz berganida, yurist sifatida qanday harakat qilgan bo'lardingiz?*

- 41) Jamyatda ayrim toifadagi shaxslar korrupsiya boshqa sohalarga qaraganda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari orasida keng tarqalgan, degan fikrda.

*Bulajak huquqshunos sifatida siz bunga qanday qaraysiz va uni o'zgartirish uchun nima qilgan bo'lardingiz?*

- 42) Xuquqshunos sifatida bir tarafning manfaatlarini himoya qilganizda tabiiyki, ikkinchi taraf bundan xafa bo'ladi. Xattoki, kasbingiz ortidan dushman ham orttirishingiz mumkin.

*Bo'lajak huquqshunos sifatida shunday holatga tushmaslik uchun siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?*

- 43) Har bir inson kasb tanlashda o'zining hayot tajribasi, qiziqishlari va intilishlariga, ushbu kasbga bo'lgan munosabatiga asoslanadi. Masalan, kimdir ota-onasi vrach bo'lgani uchun bu kasbga hurmati baland bo'lib, uni tanlaydi.

*Yurist mutaxassisligini egallashga qaror qilishingizga qanday omillar ta'sir etdi?*

- 44) Ma'lumki, mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti joriy qilindi.

*Ushbu vakilning vazifa va vakolatlari haqida nimalarni bilasiz?*

- 45) Kimdir yoshligidan adolat uchun kurashaman, jabrlanganlarni himoya qilaman, deb orzu qiladi va shu maqsad yo'lida kasb tanlaydi.

*Egallagan kasbingizni tark etib, yurist bo'lishga intilishingizga nimalar ta'sir qildi?*

- 46) Ma'lumki, yuristlar (advokatlar) aksariyat xollarda sudda o'z mijozlarining (Jismoniy va yuridik shaxslarning) huquq va manfaatlarini himoya qilishga to'g'ri keladi. Ayrim xollarda ular o'z mijozlarining aybdorligini bilib tursa ham ularni himoya qilishiga to'g'ri keladi. Masalan, mijozning o'zi qaerdadir soliqni to'lamagan, o'z majburiyatini to'liq amalga oshirmagan yoki huquqbuzarlik sodir etgan.

*Siz shunday vaziyatlarda yuristlik (advokatlik) qilsangiz, qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?*

- 47) Huquqshunolik kasbi ko'plab boshqa kasblar bilan o'zaro aloqadorlikka ega. Misol uchun, iqtisodchi, siyosatchi, tarixchi.

*Mazkur kasb egalari ruxshunoslik (psixolog) kasbi bilan aloqadorligi mavjudmi? Javobingizni asoslang.*



- 48) Yurist sifatida bir tarafni himoya qilar ekansiz, tabiiyki ikkinchi taraf sizdan norozi bo'ladi va shaxsingizga nisbatan adovatini namoyon qiladi.  
*Shunday hollarda to'g'ri yo'l tutish uchun siz nimalar qilgan bo'lar edingiz?*
- 49) Jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan eng katta omillardan biri bu korruptsiyadir.  
*Sizning talqiningizda korruptsiya nima? Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashishda qanday usullardan foydalanilmoqda? Sizningcha, yana nimalar qilinishi lozim?*
- 50) Yurist kasbi uchun omma oldida chiqish qilish, so'zlashish madaniyati alohida o'rin tutadi.  
*Siz bo'lajak yurist sifatida yuqoridagi shaxsiy jihatlaringizda qanday kamchilik va yutuqlaringiz bor deb hisoblaysiz? Ularni takomillashtirish uchun nimalar qilishni afzal ko'rasiz?*
- 51) Mamlakatimizda bu yil saylovlar yili.  
*Shaxsning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashda saylovlarning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi? Bu yilgi saylovlarning avvalgilaridan qanday farqlari bor?*
- 52) Bo'lajak xuquqshunos doimiy ravishda kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.  
*Siz kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun nimalar qilasiz? Ularning o'zaro farqli jihatlarini ta'riflab bering.*
- 53) Yuristning tafakkurini oshirib borishda shaxsiy rivojlanishga doir kitoblarning ahamiyati baland.  
*Siz o'z kasbingizga doir tafakkurni yuksaltirishda qanday adabiyotlarni o'qiysiz? Bu borada kitob o'qishdan boshqa yana qaysi usullardan foydalanasiz?*
- 54) Muvaffaqiyatli huquqshunoslar o'z kun tartibi va ish faoliyatini tashkil qilishda "time management" va "samaradorlik"ka alohida ahamiyat beradilar.  
*Siz bo'lajak huquqshunos sifatida yuqoridagi tushunchalar haqida nimalarni bilasiz? Ularning yurist kasbida tutgan o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?*
- 55) Jamiyatda huquq ustuvorligini ta'minlashda bevosita sud va huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatining ahamiyati katta.  
*Huquqni muxofaza qiluvchi organlar to'g'risida nimalarni bilasiz? Ularning faoliyat yo'nalishlari bir-biridan qayday farq qiladi?*
- 56) Muvaffaqiyatli huquqshunoslar ish faoliyatini samarali tashkil qilishda diplomatik ko'nikmalarning alohida o'rni bor.

*Shaxsdagi bu fazilatlar nimalarda namoyon bo'ladi? Siz bo'lajak huquqshunos sifatida diplomatik ko'nikmalarni shakllantirish borasida qanday usullardan foydalanasiz?*

57) Shaxslararo munosabatlar bevosita yoki texnik vositalar yordamida – bilvosita ham bo'lishi mumkin.

*Siz "masofadan turib" qanday ko'nikmalarni namoyon qilishingiz mumkin? Bunday ko'nikmalarning o'ziga xosligi nimada? Ularning qaysi birlari huquqshunos uchun muhimligini tushuntiring.*

58) Tez o'zgarayotgan, shiddatli dunyo yangi talablar qo'ymoqda. Zamonga hamnafas bo'lish va muvaffaqiyatli karjera qilish uchun inson o'z ustida ishlashi va o'zida yangi ko'nikmalarni rivojlantirishi lozim.

*So'nggi vaqtlarda huquqshunoslar uchun u yoki bu ko'nikmalarga talab oshganligini ko'rsatuvchi misollar keltiring. Bu ko'nikmalar qanday qilib kompaniyaning, tashkilotning yoki xodimning imidjiga ta'sir ko'rsatishi mumkin?*

59) Rejalashtirish – bu hayot bo'ylab sayohat qilishning bir usuli. Aniq rejaning kuchi shundaki, u barcha sa'y-harakatlarni to'g'ri yo'nalishga qaratishga yordam beradi. Reja bo'lsa, kishi aniq manzildan adashmaydi.

*Savol: bo'lajak xuquqshunos shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?*

60) Insonning tashabbuskorligi uning nisbatan mukammalligi va faolligining ko'rsatkichi hisoblandi. Tashabbuskorlik – huquqshunos uchun muhim ko'nikmalardan biridir.

*Huquqshunoslar tomonidan ushbu ko'nikmani qo'llanilishiga misollar keltiring. Tashabbuskorlikni rivojlantirishning qanday usul va metodlari mavjud?*

61) Insonlararo muloqot ko'nikmasi barcha insonlar uchun muhimdir, chunki inson o'z mohiyatiga ko'ra doimiy muloqotga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy mavjudotdir. Bunda, Siz o'zingiz uchun hamkasblaringiz, kursdoshlar va o'qituvchilaringiz bilan yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yishning asosiy jihatlarini aniqlab olishingiz lozim.

*Agar Siz va hamkasbingiz yoki kursdoshingiz bilan muloqotda ziddiyat kuzatilsa, uni qanday bartaraf etasiz? Boshqa odamga murakkab va noodatiy ma'lumotni qanday yetkazgan bo'lardingiz? O'zingiz uchun unchalik yoqimli bo'lmagan inson bilan yaxshi munosabat o'rnatgan holatni yoritib bering.*

62) Modomiki maqsadga erishishga jiddiy kirishgan bo'lsangiz, ularni nafaqat to'g'ri belgilab olish, balki sizni bu yo'ldan chalg'ituvchi omillar va odatlardan voz kechishga ham to'g'ri keladi.

*Huquqshunos mutaxassisning o'z oldiga maqsad qo'yishida maqsadni shakllantirishning muhimligi nimada, deb o'ylaysiz?*

- 63) Muvaffaqiyatga erishgan huquqshunoslar o'z vaqtlarini kelgusida ularni yangi bilimlar, ijodiy qarorlar va kuch-quvvat bilan ta'minlaydigan narsalarga sarmoya qilishadi. Dastlab, ularning muvaffaqiyati sezilmasligi mumkin, biroq, oxir-oqibat, uzoq muddatli sarmoyalar samarasi o'laroq ular misli ko'rilmagan cho'qqilarni zabt etishadi.

*Siz vaqtingizni boshqarish bo'yicha qanday usul va yondashuvlar haqida ma'lumotga egasiz va ulardan qaysilarini amalda qo'llayapsiz?*

- 64) Ma'lumki, har bir kasb egasi o'z sohasining muhim jihatlari, o'ziga xosliklari, muammo va yechimlari xususida ko'p va xo'b gapirishi, odamlar e'tiborini o'ziga jalb etishi mumkin.

*Sizningcha, huquqshunos nutqi boshqa kasb egalari nutqidan qaysi muhim sifatlari bilan ajralib turishi lozim?*

- 65) Huquqshunoslarning kasbiy huquqiy madaniyati haqida ham jahon miqyosida, ham milliy qonunchiligimizda bir qancha mezonlar tilga olingan.

*Siz ana shu kasbiy huquqiy mezon degan tushunchaga qanday munosabatdasiz?*

## **Nutq madaniyatining shakllanganligi, o'z fikrini ravon ifoda etish va tanqidiy fikrlash salohiyatiga ega ekanligini aniqlash savollari**

- 1) Ijodiy va tanqidiy fikrlashning o'zaro bog'liqligi va farqini tushuntirib bering. *O'z fikringizni amaliy misollar bilan bayon eting.*
- 2) Tanqidiy fikrlash kundalik tushunchada barcha holatlarni tanqid qilishni anglatadimi?
- 3) Tanqidiy fikrlashga qanday amaliy misollarni keltira olasiz?
- 4) Huquqshunoslarga nima uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lish muhim hisoblanadi?
- 5) Mantiqiy fikrlash deganda nimani tushunasiz?
- 6) Mantiqiy fikrlashni aniqlash va rivojlantirish usullari o'rtasida qanday farq va o'xshashlik mavjud?
- 7) Yurist mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi bilan qanday ko'nikmalarga ega bo'ladi?
- 8) Maqsadni to'g'ri shakllantirishning zaruriy talablari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 9) Fuqarolar huquqshunosdan, birinchi navbatda, nimani kutishadi deb o'ylaysiz?
- 10) Kreativlik nima va uning yurist faoliyatidagi ahamiyati qanday?
- 11) Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish maqsadi va mohiyati nimadan iborat deb o'ylaysiz?
- 12) Vaqtni boshqarish nimaga kerak?
- 13) Nima uchun huquq sohasida ham ta'sirchan nutqning, notiqlikning o'rni va ahamiyati katta?
- 14) Sizningcha mantiqiy fikrlashni qanday usullar orqali rivojlantirish mumkin?
- 15) Yurist mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi bilan qanday ko'nikmalarga ega bo'ladi?
- 16) Tanqidiy fikrlash nima?
- 17) Haqiqiy lider (etakchi) qanday bo'lishi kerak? Yetakchilikning asosiy ko'nikmalari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 18) Yuridik kadrlarda kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish qanday ahamiyat kasb etadi?
- 19) Huquqshunosning professional faoliyati davomida maqsadni to'g'ri shakllantirish qanday ahamiyatga ega?
- 20) Kreativlik huquqshunos uchun qanday ahamiyat kasb etadi?
- 21) Vaqtni boshqarish ko'nikmasi va undan foydalanish huquqshunos uchun qanday afzalliklarga ega?

- 22) Yurist faoliyatida mantiqiy fikrlashning roli.
- 23) Huquqshunoslar jamoasi ishini to'g'ri tashkil etishda qanday usul va talablar mavjud?
- 24) Jamoaning samarador a'zosiga aylanishda huquqshunosdan nimalar talab qilinadi?
- 25) Haqiqiy lider (etakchi) qanday bo'lishi kerak? Yetakchilikning asosiy ko'nikmalari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 26) Jamoa lideri qanday asosiy funksiyalarni bajaradi?
- 27) Rahbar va lider tushunchalari o'rtasidagi qanday mushtarak va farqli jihatlar mavjud?
- 28) Kasbga sadoqat, mas'uliyat va halollik – huquqshunos kasbida qanday ahamiyatga ega?
- 29) Advokatning o'ziga xos odob-axloqi, ma'naviy tamoyillari va boshqa kasbiy fazilatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 30) Sud'yalik etikasi haqida nimalarni bilasiz?
- 31) Muzokaralar jarayoni to'g'risida huquqshunos nimalarni bilishi kerak?
- 32) Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning fazalari to'g'risida nimalarni bilasiz?  
Ushbu bosqichlar to'g'risida so'zlab bering.
- 33) Nima uchun to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak?
- 34) Ishchi guruh va jamoaning xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 35) Tanqidiy fikrlash nima va u huquqshunos faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
- 36) Huquq sohasida ta'sirchan nutqning, notiqlikning o'rni va ahamiyati qanday?
- 37) Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirishdan maqsad nima va u yurist faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
- 38) Huquqshunosning professional faoliyatida shaxsiy fazilatlar qanday ahamiyatga ega?
- 39) Huquqshunos tomonidan huquqiy va badiiy kitoblarni o'qishga zarurat bormi?
- 40) Huquqshunos uchun zamonaviy axborot-texnologiyalarining qanday ahamiyati bor?

## Umumiy dunyoqarishining shakllanganligi, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatini aniqlash bo'yicha savollar

- 1) Huquqiy madaniyatli kishi qonunlarni umuman bilmaydigan yoki yomon biladigan yoxud bilsa-da, ularni buzadigan kishidan nimasi bilan farq qiladi?
- 2) Nima uchun har bir kishiga huquqiy bilimlar zarur? Huquqiy savodsizlik nimaga olib keladi?
- 3) Sizningcha, qonun kishining yaxshi maslahatgo'yi va yordamchisiga aylanishi uchun nima qilish kerak?
- 4) Huquq me'yorlari bilan axloq me'yorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimada ko'zga tashlanadi?
- 5) Qonunlarni bilmasdan turib adolatsizlikka qarshi kurashib bo'ladimi? O'z javobingizni asoslang.
- 6) Bugungi kunda jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish, hattoki tegishli mutasaddi rahbarlarni tanqid qiladigan blogerlar faoliyati ancha ko'zga tashlanib qoldi.

*Siz bo'lajak huquqshunos sifatida bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib boradigan blogerlarga munosabatingiz qanday? Ularning huquq va majburiyatlari haqida nimalarni bilasiz?*

7) Sud majlisi zalida fuqaro K. ga nisbatan jinoyat ishi ko'rib chiqilayotgandi. Sud majlisi jarayonida K. ishni olib borayotgan sudya M.ni tinmay haqoratlar, uning obro'yi va sha'nini kamsitib, so'kinardi. Sudyaning sud majlisi zalida tartib saqlanishi haqidagi qonuniy talablariga amal qilmay, K. ozodlikka chiqqach, sudyaga nisbatan qotillik sodir etishini aytib po'pisa qila boshladi. Faqat sud majlislari zalidan konvoy yordamida chiqarib yuborilganidan keyingina K.ning harakatlari tugatildi.

*Ko'z harakatlari bilan boshqalarning huquqlarini buzgan, deb hisoblash mumkinmi? U qonunni buzganmi yoki axloq me'yorlarinimi?*

8) Uyni topshirishga tayyorgarlik ko'rilayotganda, qurilish rahbari K. to'plangan maishiy chiqindilarni olib borib o'rmonga to'kish ga ko'rsatma berdi. Chiqindilarni to'kishga ulgurgan haydovchi V. o'rmon qo'riqchisi tomonidan qo'lga olindi. Haydovchi V. maishiy chiqindilarni o'rmonga to'kish buyrug'ini quril ish rahbaridan olganini tushuntirdi.

*Qurilish rahbari K. harakatlarida huquqbuzarlikni ko'rish mumkinmi? Haydovchi V. harakatlarida-chi? Bu qanday huquqbuzarlik deb o'ylaysiz?*

9) Betinim vujudga kelayotgan harbiy to'qnashuvlarga o'z munosabatingizni bildiring.

*Sizningcha, davlatlar o'rtasida doimo katta va kichik urushlar bo'lishiga sabab nima?*

10) A. va M. o'zaro garov o'ynashdi. Agar «Paxtakor» jamoasi yutib chiqsa, A. o'zining mototsiklini M.ga beradi, yutqazib qo'ysa, M. o'z noutbukini A.ga beradi, deb kelishishdi. A. garovda yutqazdi, lekin garov o'ynayotganida o'z harakatlarini o'ylamay qilganini sabab qilib, mototsiklni berishdan bosh tortdi.

*Bunday bitim huquqiy jihatdan to'g'rimi? fikringizni asoslang.*

11) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oxirgi marta qachon o'zgartirish kiritilgan va ushbu o'zgartirishning qisqacha mazmuni nimalardan iborat?

12) Amerikalik psixolog Abraxam Maslou fikriga ko'ra, kreativlik – bu barcha insonlarga tug'ma xos bo'lgan, lekin keyinchalik ko'pchilik tomonidan tarbiya, ta'lim, ijtimoiy muhitning mavjud tizimi ta'sirida yo'qotilgan ijodiy yo'naltirilganlikdir.

*Yurist kasbi uchun kreativlikning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi? O'zingizning kreativlik darajangizni qanday baholaysiz? Shaxsiy kreativligingizni qanday qilib oshirgan bo'lardingiz?*

13) “2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” tashqi siyosatda haqida fikringizni bayon qiling?

14) BMT qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?

15) BMTning barcha qatnashchi davlatlari o'z harakatlarida qaysi tamoyillarga amal qilishga majburdirlar?

16) MDH qanday tashkilot va unga qaysi davlatlar a'zo?

17) Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha BMT faoliyatini tavsiflab bering?

18) Fuqarolarning huquqiy holati haqida fikringizni bayon qiling va uni misolla bn asoslang?

19) Huquqiy davlatning asosiy belgilariga nimalar kiradi?

20) Bugungi kunda jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish, hattoki tegishli mutasaddi rahbarlarni tanqid qiladigan blogerlar faoliyati ancha ko'zga tashlanib qoldi.

21) Siz bo'lajak huquqshunos sifatida bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib boradigan blogerlarga munosabatingiz qanday? Ularning huquq va majburiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

22) Prezentsiyalarning turlari va shakllarini aytib bering.

23) Sizda kerakli ma'lumot mavjud bo'lmagan xolda qanday qilib qaror qabul qilish kerak? O'z fikringizni asoslantiring.

24) Siz bir nechta dasturlaringiz bilan dars mashg'uloti uchun taqdimot tayyorladingizlar. Dars mashg'uloti davrida ushbu taqdimotda xatolikni aniqladingiz, vaziyatdan qanday qilib chiqib ketasiz?

25) Huquqshunoslik sohasida bo'lajak kasbingizni qanday tassavur qilasiz? Qanday qilib unga erishishni rejalashtirmoqdasiz?